

FILOLOGIK TA'LIMNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH METODIKASI

Bozorova Mohira Ahrorovna

BDTI akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15052682>

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologik ta'limni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar: til, zamonaviy axborot, pedagogik texnologiyalar, moddiy olam, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat.

Аннотация. В статье дается обратная связь по методике использования инновационных технологий в преподавании филологического образования.

Ключевые слова: язык, современная информация, педагогические технологии, материальный мир, мозговой штурм, бумеранг, блиц-опрос, кластер, кейс-стади, герменевтическая беседа.

Abstract. This article provides feedback on the methodology of using innovative technologies in teaching philological education.

Keywords: language, modern information, pedagogical technologies, material world, brainstorming, boomerang, blitz-survey, cluster, case study, hermeneutic conversation.

Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog'idan boshlab qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rganishni talab etmoqda. Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi.

Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyektiv aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning o'ziga xos nafasini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda.

Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi [1, 180- bet]. Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Kakografiya soʻzi lotincha kakos – yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos – yozmoq soʻlaridan olingan boʻlib, muayyan maqsadni koʻzlab xatoliklarga yoʻl qoʻyilgan matnni tuzatirish orqali oʻquvchilarga imloni oʻrgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan [2, 13-bet]. Rus tilida какофонический, какофония degan soʻzlar mavjud boʻlib, ularga lugʻatlarda quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, gʻaliz; uygʻunlashmagan, yoqimsiz tovushlar yigʻindisi degan izohlar beriladiki, bu soʻz semantikasiga salbiy baho yuklaydi [3, 414-bet]. Shunga koʻra, kakografiya usulida yozuv bilan bogʻliq gʻalizlik, yoqimsizlik yashirinib yotganga oʻxshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan qaralganda u bilan bogʻliq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin.

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular boʻyicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Oʻquvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yoʻqotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nafaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi.

Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya boʻlimlari bilan bogʻliq amaliy darslarni oʻtishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, oʻquvchilarga unli va undosh tovushlar boʻyicha yetarlicha maʼlumotlar berilgach, “Mustahkamlash darslari” yoki “Takrorlash darslari”da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy eʼtibor soʻzlarning aytilishi va yozilishi oʻrtasidagi farqqa qaratiladi. Tajribadan maʼlumki, oʻquvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta oʻzlashtirmaydilar. Soʻzlarni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, oʻquvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, soʻzlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab boʻladi.

Masalan, oʻquvchilarning ogʻzaki nutqida baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, masʼul, daryo kabi soʻzlarni boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, maʼsul, dayra tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi boʻyicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega boʻlganliklarini koʻrsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida “Oʻzbek tilining imlo qoidalarini”dagi “Ayrim unlilar va undoshlar imlosi” yuzasidan tegishli nazariy maʼlumotlar mavzular oʻtilgach, quyidagicha topshiriq beriladi: Soʻzlarni oʻqing, xato yozilgan oʻrinlarni topib, oʻzbek tilining imlo qoidalariga mos ravishda ularni toʻgʻrilang va daftaringizga koʻchirib yozing. Bugalter, hayol, xayo, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kompyuter, maylis va hokazo.

To'g'ri yozilishi: buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis. Kakografik yo'nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;
- O'quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;
- Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;
- Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Ayniqsa, og'zaki nutqda h – x, b – p, d – t, z – s kabi birining o'rniga ikkinchisi ko'p qo'llaniladigan undosh tovushlarning imlosini o'rgatishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi.

Bunda xato yozilgan so'zlarni o'quvchilarga slaydlar orqali ko'rsatish, sinf taxtasiga ataylab xato yozish, so'zlari xato yozilgan tarqatma materiallarni qo'llash kabi vositalardan foydalanish unumli. Masalan: Xato yozilgan so'zlarni aniqlab, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to'g'rilang va daftaringizga ko'chirib yozing. Orombahsh, zahira, hoxish, xol-ahvol, hiyonat, ihlos, xar hil, xamma, Xindiston, hatti-xarakat, hayol To'g'ri yozilishi: orombaxsh, zaxira, xohish, hol-ahvol, xiyonat, ixlos, har xil, hamma, Hindiston, xatti-harakat, xayol. Kakografiya usuli leksikologiya bilan bog'liq mavzularni o'tishda ham qo'l keladi. Matn ichida bir tovush bilan farqlanuvchi dars-darz, bob-bop, mart-mard, qasr-kasr, qaram-karam, halok-halak, kaft-kift, asl-asil, asr-asir, oxir-axir-oxur, chog'-choq-choh singari paronim so'zlarni xato yozib, o'quvchilardan ularni to'g'rilab yozishni so'rash ulardagi bilimlarni mustahkamlashga olib keladi. Xato yozilgan paronim so'zlarni toping, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to'g'rilab, daftaringizga ko'chiring.

Birovga choq qazisang, o'zing tushasan. Mart bir o'ladi, nomart – ming. Qarz ikki qo'ldan chiqadi. Onangni kiftingda ko'tarsang, singlingni kaftingda ko'tar. Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana, Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana, Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana, Moziyni yot etay desang – xalq bo'l, elim! [4, 10-bet]. Gaplardagi choh, mard, momard, qars, kaft, kift, yod so'zlari noto'g'ri yozilgan. Buni faqat o'ylash, fikrlash, leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni eslash, xotirlash va zaruriy xulosalar chiqarish orqaligina topish mumkin. Bu esa o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi, ulardagi mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kakografiyaning yana bir ko'rinishi matn ichida noto'g'ri berilgan so'zlarni to'g'rilashdan iborat. Gaplarni o'qing, noto'g'ri yozilgan so'zlarni orfografiya qoidalariga mos ravishda ko'chirib yozing. Bug'day noning bo'masin, Bug'day so'zing bo'sin.

Ma'zali so'zga qulog' charchamas. Toom lazati o'zidan, Odam lazati – so'zidan.

Qulog‘dan kirgan soviq so‘z ko‘ngilga borib muz bo‘lar. Puling bo‘masa bo‘masin, shirin so‘zing bo‘sin. Tili shirinning do‘si ko‘p. Qattiq gap qarindoshga ham yoqmas. To‘g‘ri yozilishi:

Bug‘doy noning bo‘lmasin, Bug‘doy so‘zing bo‘lsin. Mazali so‘zga quloq charchamas.

Taom lazzati o‘zidan, Odam lazzati – so‘zidan. Quloqdan kirgan sovuq so‘z ko‘ngilga borib muz bo‘lar.

Puling bo‘lmasa bo‘lmasin, shirin so‘zing bo‘lsin. Tili shirinning do‘sti ko‘p. Qattiq gap qarindoshga ham yoqmas. Bunday topshiriqlar o‘quvchilardagi ko‘rish, eslash, narsalarni bir-biriga solishtirish va zaruriy xulosalar chiqarish kabi aqliy-ruhiy xususiyatlarning rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Umuman olganda, biz – yoshlar vatanimiz O‘zbekistonning qanotlarimiz. Bugun bizning oldimizda ona tilini o‘rganish borasida yagona to‘g‘ri yo‘l turibdi. Bizdan millatimizning bebaho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiroti sanalgan o‘zbek tilini mukammal o‘rganishimiz, og‘zaki va yozma savodxonligimiz yuksak bo‘lishi talab etilmoqda.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun bizga kakografiya usuli kutilgan samarani berishi mumkin. Zero, davr o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

REFERENCES

1. Мирханова, Г. (2024). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИ. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(1), 76-80.
2. Мирханова, Г. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172-178.
3. Rustamovna, M. G. (2020). Rus tilshunosligida sinonim sozlar oquv lugatlarining tadrijiy rivojlanishi. *Oriental Art and Culture*, (III), 326-329.
4. Rustamovna, M. G. (2024). Linguistic Form of Terms in Explanatory Dictionaries of the Uzbek Language. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(6), 589-591
5. Mirxanova, G. (2021). Sinonim so'zlar o'quv lug'atining megaqurilishi: Sinonim so'zlar o'quv lug'atining megaqurilishi. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 1(1).
6. Mirxanova, G. R. (2022). Stages of Enhancement of Synonym Dictionaries. *International Journal of World Languages*, 2(1).
7. Rustamovna, M. G. (2023). Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language.

8. Mirxanova, G. R. (2021). EMERGENCE AND STAGE OF DEVELOPMENT OF FIRST SYNONYM DICTIONARIES. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(2), 96-105.
9. Mirxanova, G. R. (2023). SYNTACTIC ANALYSIS OF WORKS OF ART IN ELEMENTARY SCHOOL TEXTBOOKS: METHODS AND APPLICATIONS.
10. Мирханова, Г. Р., & Сафарова, О. М. (2019). УЧЕБНЫЕ СЛОВАРИ–СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ. *Вестник магистратуры*, (6-5), 41.
11. Rustamovna, M. G. Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek.
12. Rustamovna, M. G. EMERGENCE AND STAGE OF DEVELOPMENT OF FIRST SYNONYM DICTIONARIES. *EMERGENCE*, 5, 24-2021.
13. DICTIONARIES, S. a teacher of the faculty of Primary education, BSU. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 96.
14. Rustamovna, M. G. (2020). THE IMPORTANCE OF LEXICOGRAPHY IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION. *В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с.*, 165.
15. Eshqulova, G., Musurmonova, M., & Axmedova, D. B. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darslarida nutqiy ko 'nikmalarni rivojlantiruvchi o 'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 72-75.
16. Axmedova, D. (2023, May). О 'ZBEK TILI KORPUSLARI SEMANTIK KENGAYTMASIDA "BOSH" LEKSEMASINING SEMANTIK IZOHLARIDAN FOYDALANISH XUSUSIDA. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ" Международная научно-практическая конференция (Vol. 2, No. 2).
17. Axmedova, D., & Eshqulova, G. (2022, June). TIL BIRLIKLARINI SEMANTIK TEGLAHDA SEMEMA MASALASI. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ" Международная научно-практическая конференция (Vol. 1, No. 1).
18. Qizi, Y. B. A., Qizi, Y. H. A., & Axmedova, D. B. (2022). 2-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(15), 51-56.
19. Qizi, S. M. A., & Axmedova, D. B. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIM EGALLASHGA DOIR QARASHLARINI

SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK ASARLARNING O'RNI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 43-46.

20. Axmedova, D. (2021). СЕМАНТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА СИСТЕМА И МОДЕЛЬ. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
21. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
22. Akhmedova, D. B. (2020). SET OF SEMANTIC TAGS FOR UZBEK LANGUAGE UNITS: CONSTANTS AND OPERATOR CLASSIFIER. *Theoretical & Applied Science*, (2), 177-179.
23. Bahodirovna, D. A. (2020). SEMANTIC TAG CATEGORY IN CORPUS LINGUISTICS: EXPERIENCE AND ANALYSIS. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 152-160.
24. Bahodirovna, A. D., & Khamidjanovna, A. F. IDEOLOGICAL AND ARTISTIC ASPECTS OF SAHBO LYRICAL HERITAGE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 235.